

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04./30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

RAJABOV ULUG‘BEK MAMASHOYEVICH

GIDRAVLIK ZARBA SO‘NDIRGICHNING HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Rajabov Ulug‘bek Mamashoyevich Gidravlik zarba so‘ndirgichning hisobini takomillashtirish.....	3
Ражабов Улугбек Мамашоевич Совершенствование метода расчета гасителя гидравлического удара.....	21
Razhabov Ulugbek Mamashoevich Improving the method for calculating the hydraulic shock absorber.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04./30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RAJABOV ULUG‘BEK MAMASHOYEVICH

GIDRAVLIK ZARBA SO‘NDIRGICHNING HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T3526 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik - iqtisodiyot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahafasida (www.qmii.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jonqobilov Ulug'murad Umbarovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xo'jayev Ismatilla Qo'shayevich
texnika fanlari doktori, professor

Uralov Baxtiyor Raxmatullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD 04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning «06» «07» 2023 y. soat 16⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225 uy. Tel: (+99875)-221-09-23, faks: (75) 221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 225 uy. Tel: (+99875)-221-09-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «01» «06» kuni tarqatildi
(2023 yil «01» «06» daqiqa 1422 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.S.Eshv

Ilmiy darajalar beruvchi
kengash raisi, I.F.d., professor

A.N.Xazratov

Ilmiy darajalar beruvchi
kengash kotibi, I.F.d., dotsent

R.Xo'jayev

Ilmiy darajalar beruvchi
kengash huzuridagi ilmiy
seminar raisi, I.F.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda suv uzatish va texnologiyalaridan oqilona foydalanish, nasos stansiyalari va uzun naporli quvurlardan ishonchli foydalanishni ta'minlovchi ishlanmalarni yaratish, naporli quvurlarning gidravlik samaradorligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda «...naporli quvurlardagi gidravlik zarba jarayonining matematik modelini takomillashtirishda oqim bilan quvurning o'zaro ta'sirini asoslash zarurati belgilangan»¹. Bu borada, jumladan foydalanayotgan nasos stansiyalarining samarali ishlashi, xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlashda nasos stansiyalarining naporli quvurlarida gidravlik zarba jarayonlari tadqiqotida resurs va energiya tejashga qaratilgan ishlanmalarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda nasos stansiyalari naporli quvurlarining samarali ishlash rejimini ta'minlashda oqimning beqaror harakatiga bag'ishlangan tadqiqotlar gidravlik zarba so'ndirgichlar optimal o'lchamlarini so'ndirgich ichidagi ishchi jism (havo+suv)lar hajmlari o'zgarishining optimal qiymatlarini asoslab aniqlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, nasos stansiyalarining naporli quvurlarida gidravlik zarba so'ndirgichlar parametrlarini hisoblash usulini takomillashtirish va ishonchli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, naporli quvurlar tizimini gidravlik zarbaga hisoblashda so'ndirgichlar ichidagi havo hajmi o'zgarishini va uning siqilish - kengayish jarayonlarini inobatga olib so'ndirgichdagi napor o'zgarishining maksimal va minimal qiymatlarini hisoblashda politropa ko'rsatkichining tajribada asoslangan qiymatini inobatga olib matematik modelini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda nasos stansiyalaridan samarali va xavfsiz foydalanish, samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni yaratish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish»² bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, sug'orish nasos stansiyalarining ishonchli ishlashi, gidromexanik qurilmalarning konstruksiyalarini takomillashtirish, ulardan oqilona foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021 yil 29 iyuldagi PF-5201-son «O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida sug'oriladigan yerlarni stabil suv bilan ta'minlaydigan 29 ta nasos stansiyalarni modernizatsiya qilish to'g'risida», 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini

¹ <https://doi.org/10.1016/j.jfluidstructs.2017.10.005>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari va 2017 yil 25 sentabrdagi PQ-3286-son «Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Bu tadqiqot respublikada fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish"ga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Naporli quvurlarda gidravlik zarbaning nazariy asoslari va hisoblash usullarini ishlab chiqishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Jukovskiy N.YE., Surin A.A., Kutateladze S.S., Moshnin L.F., Lyamayev B.F., Popov D.N., Smirnov D.N., Djvarsheyshvili A.G., Dikarevskiy V.S., Alishev V.M., Andriyashev M.M., A.M.Al-Khomairi, G.Evangelisti D.Ludewig va boshqalar.

Naporli quvurlar tizimida va nasos stansiyalarining uzun naporli quvurlarida gidravlik zarbani hisoblashning samarali usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga O'zbekistonning taniqli olimlari Raxmatullin X.A., Latipov Q.SH., Umarov A.I., Xamidov A., Xo'jayev I.Q., Muxammadiyev M., Arifjanov A.M., Xudayqulov S.I., Glovatskiy O.Ya., Urishev B., Jonqobilov U.U., Mirxamidova X.B. larning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida naporli quvurlar tizimida gidravlik zarbaning salbiy oqibatlari oldini olishga oid masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Bugungi kunda nasos stansiyalari quvurlarida oqimning beqaror harakati bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga qaramasdan, uzun naporli quvurlar tizimida foydalaniladigan gidravlik zarba so'ndirgichlar konstruktiv parametrlarini asoslash va so'ndirgich ichida ishchi jism(havo)ning harakat qonuniyatini napor o'zgarishining ekstremal qiymatlarini inobatga olish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 5/2016-“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalarining ilmiy-texnikasalarini yechimining samarasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish” va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan № GvaGI/40-20-sonli “Nasos stansiyalari bosim quvurlarini gidravlik hisoblash usullarini takomillashtirish” (2021) mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nasos stansiyalarining naporli gidravlik tizimlarida so'ndirgichlardagi havo parametrlarining o'zgarish qonuniyatini inobatga olgan holda gidravlik zarba so'ndirgichi hisobini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

salbiy (bosim kamayishidan) va ijobiy (bosim ortishidan) gidravlik zarba jarayonlarida so'ndirgichlar uchun politropik jarayonni eksperimental asoslash;

quvurdagi suyuqlik barqaror harakati boshlang'ich parametrlarining o'zgarishlarini hisobga olib naporli quvurlarda bosimning pasayishidan gidravlik zarba jarayoni ish rejimida so'ndirgich ichidagi gidrodinamik jarayonning matematik modelini ishlab chiqish;

gidravlik zarba so'ndirgichdagi politropik jarayonni hisobga olgan holda naporli tizimlarda bosim oshishidan matematik modelini ishlab chiqish;

naporli quvurlarda yuzaga keladigan salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlarida so'ndirgichlarni hisoblash usulini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi Qo'ng'irtog', Varganza-2 nasos stansiyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini naporli quvurga o'rnatilgan gidravlik zarba so'ndirgichdagi jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida analitik, sonli usullar, tizimli tahlil, real obyektlarda va laboratoriyada olingan ma'lumotlarni matematik statistika usullari bilan qayta ishlash, shuningdek, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quvurda salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlarida so'ndirgichlarda havo bosimi va hajmining o'zgarishlarini inobatga olgan holda so'ndirgich ichida politropik jarayonning politropa ko'rsatkichi qiymatining 1,2 ga tengligi eksperimental asoslandi;

naporli quvurda barqaror oqim boshlang'ich parametrlarining keng intervaldagi o'zgarishlarini va so'ndirgichdagi politropik jarayonni inobatga olib salbiy gidravlik zarba ish rejimida so'ndirgichni hisoblashning matematik modeli takomillashtirilgan;

gidravlik zarba so'ndirgichi ichida politropik jarayonni inobatga olgan holda naporli tizimlarda ijobiy gidravlik zarba jarayonida so'ndirgichni hisoblashning matematik modeli takomillashtirilgan;

naporli quvurda yuzaga keladigan salbiy va ijobiy gidravlik zarba so'ndirgichlarida politropik jarayonni inobatga olib so'ndirgichni hisoblash usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nasos stansiyalarining naporli quvurlariga gidravlik zarba so'ndirgichlarning tavsiya etilgan konstruksiyalarini o'rnatish gidravlik zarba kuchini pasaytirishning asosiy va samarali usullari ekanligi eksperimental tarzda tasdiqlangan;

tavsiya etilgan gidravlik zarba so'ndirgichlar uchun to'liq tenglamalarining sonli va analitik yechimlari olingan;

taklif etilayotgan so'ndirgichlarning parametrlarini hisoblash uchun olingan formulalar muhandislik hisoblarining aniqligini oshirish va ushbu gidravlik so'ndirgichlarni yasashga sarflanadigan metall sarfini va narxini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yechimlarni ishlab chiqishda umum qabul qilingan mexanika qonunlari va matematik usullarga asoslanganligi, olingan natijalarni o'tkazilgan dala

tadqiqotlari natijalari bilan solishtirilganligi, ma'lumotlarni tahlil qilishda matematik statistika uslublaridan foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlarida zarba so'ndirgichlar matematik modellarini sonli va analitik hisoblashlarda politropa ko'rsatkichini inobatga olib takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gidravlik zarba so'ndirgichi maksimal va minimal naporlarini hisoblash usuli politropa ko'rsatkichi optimal qiymatini inobatga olib takomillashtirilganligi, gidravlik zarba so'ndirgichi iqtisodiy parametrlarini hisoblash usuli gidravlik zarba paytida oqimning gidrodinamik parametrlarini inobatga olib takomillashtirilganligi, bosim kamayishidan va bosim ortishidan sodir bo'ladigan gidravlik zarba vaqtida politropa ko'rsatkichining aniq qiymati ($n = 1,2$) asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan tadqiqot natijalari asosida so'ndirgich ichidagi havoning siqilish va kengayish qonuniyatini hisobga olgan holda bosimning pasayishi va ortishi bilan sodir bo'ladigan gidravlik zarba jarayonlarida so'ndirgichlarni hisoblash usullarini takomillashtirish asosida:

nasos stansiyalarining naporli quvurlarida va naporli tizimlarida bosimning pasayishi va bosimining oshishi bilan sodir bo'ladigan gidravlik zarba jarayonlarida so'ndirgichlarni hisoblash usullari natijalari havoning siqish va kengayish qonunini takomillashtirishni hisobga olgan holda O'zbekiston suv xo'jaligi vazirligiga qarashli Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli Qarshi tumanidagi Qo'ng'irtog' nasos stansiyasiga so'ndirgichlarning taklif etilayotgan konstruksiyalari joriy etildi (Suv xo'jaligi vazirligining 2023 yil 31 martdagi 03/37-974-son ma'lumotnomasi). Qo'ng'irtog' nasos stansiyasining talofatsiz normal ishlashini ta'minlash natijasida resurs tejashning 6-9 foizga oshishi aniqlandi;

O'zbekiston suv xo'jaligi vazirligiga qarashli Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli Kitob tumanidagi Varganza-2 nasos stansiyasi bosimli quvurlarini suv zarbiga hisoblash usullari natijalari (Suv xo'jaligi vazirligining 2023 yil 31 martdagi 03/37-974-son ma'lumotnomasi) joriy etildi. Varganza-2 nasos stansiyasining muammosiz normal ishlashini ta'minlash natijasida resurslarni tejashning 7-10% ga oshishi aniqlandi. Natijada kutilgan iqtisodiy samaradorlik 40 000 000 (qirq million) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, Scopus bazasida indeksasiyalangan konferensiyalarda 4 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shu bilan bir qatorda 4 ta EHM dasturlari uchun guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining zarurligi va mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari bayon etilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar, Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gidravlik zarba so'ndirgichlarning tadqiqotlari bo'yicha ishlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida naporli quvurlarda salbiy (bosimning kamayishidan) va ijobiy (bosimning ortishidan) gidravlik zarba jarayonlarida qo'llaniladigan zarba so'ndirgicharning nazariy asoslari va gidravlik parametrlarini hisoblash usullari bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlarning tahlili keltirilgan.

Naporli quvurlarda gidravlik zarbaning nazariy asoslari va matematik modelini ishlab chiqish masalalari N.YE.Jukovskiy, A.A.Surin, X.A.Raxmatulin, M.A.Mostkov, A.F.Mostovskiy, L.F.Moshnin, V.M.Papin, D.N.Popov, D.N.Smirnov, L.Berjeron, A.G.Djvarsheyshvili, V.S.Dikarevskiy, K.SH.Latipov, A.Xamidov, A.M.Al-Khomairi, G.Evangelisti D.Ludewig va boshqalarning ishlarida bayon etilgan bo'lib, bu tadqiqotlarning asosiy qismi gidravlik zarba so'ndirgichlar parametrlari hisoblarini bajarishda so'ndirgich ichidagi ishchi jism(havo+suv) o'zgarish jarayoni izotermik yoki adiabatik deb olingan bulib unda ma'lum cheklanishlar mavjud.

Gidravlik zarba parametrlarini hisoblash usullari qator olimlarning V.M.Alishiev, B.F.Lyamayev, L.I.Maxaradze, G.I.Kirmelashvili, I.Q.Xo'jayev, A.M.Arifjanov, M.M.Muxammadiyev, O.Y.Glovaskiy, S.I.Xudayqulov, B.Urishev, U.U.Jonkobilov, M.M.Andriyashev, L.B.Zubov va boshqalar ishlarida keltirilgan bo'lib, bu ishlanmalarda gidravlik zarba jarayonida so'ndirgichlarning alohida masalalari tadqiqoti berilgan va olingan natijalar so'ndirgichlardagi jarayonning xususiy hollarini ifodalaydi. Gidravlik zarba jarayonida so'ndirgichning o'lchamlarini aniq hisoblashda so'ndirgich ichidagi havo va suvning ba'zi xossalari bilan bir qatorda, havo hajmi va havo bosimining vaqt davomida o'zgarish ta'sirini hisobga olish lozimligi bayon etilgan.

Nazariy va eksperimental tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'ndirgich ichidagi havo parametrlarining o'zgarishi so'ndirgichlarning optimal o'lchamlarini aniqlashga sezilarli darajada ta'sir qiladi, ular faqat suv hisobiga ishlaydigan so'ndirgichlardan farq qiladi. Xususan, yuqorida aytib o'tilganidek, so'ndirgichning o'lchamlarini aniq hisoblash politropa koeffitsiyenti n ning son

qiymatiga bog'liq bo'lib, u so'ndirgich ichidagi havoning kengayish-siqilish qonunini ifodalaydi.

Politropa ko'effitsiyentining miqdoriy va sifat xususiyatlarini, so'ndirgich ichidagi napor maksimal va minimal qiymatlarini inobatga olib so'ndirgichlarning tejamkor o'lchamlarini aniqlash masalalari tadqiqoti zaruratini taqozo qilishi bayon etilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida ishning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Naporli gidravlik tizimlarda gidravlik zarba so'ndirgichlarning analitik va sonli tadqiqotlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida naporli quvurga o'rnatilgan pnevmogidravlik zarba so'ndirgich ichidagi havo miqdorining o'zgarishini ifodalaydigan politropa ko'effitsiyentining tajribada asoslangan aniq qiymatini hisobga olib salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlari to'lqin tenglamalarining analitik va sonli yechimlarini hisoblashning asoslari bayon etilgan.

Gidravlik zarba so'ndirgichlarni hisoblash aniqligi politropa ko'rsatkichining n ning ishonchli qiymatiga bog'liq. Muhandislik amaliyotida gidravlik zarba so'ndirgichda havoning siqish-kengayish qonunini hisobga olib n ning son qiymatini aniqlash masalasi yechimi muammo bo'lib turibdi.

Masalan, N.YE.Jukovskiy gidravlik zarba so'ndirgichni hisoblashda havoning siqish-kengayishining adiabatik qonunini qabul qiladi ($n=1,4$), A.A.Surin, V.S.Dikarevskiy, V.M.Alishevlar havoning siqilishi-kengayishining izotermik qonuniyati ($n=1,0$) ni qo'llashni tavsiya qiladilar. B.F.Lyamayev va D.A.Fokslarning ilmiy ishlarida so'ndirgichda havoning siqilish-kengayish jarayoni politropik qonunga muvofiq borishi aytilgan.

Biroq, oxirgi holat qo'shimcha tadqiqotlar va ilmiy asoslashni talab qiladi. Shu sababli, gidravlik zarba so'ndirgichini hisoblash uchun politropik ko'effitsiyentning qiymatini to'g'ri tanlash mantiqiy asosi juda dolzarb bo'lib so'ndirgichdagi maksimal va minimal naporni va uning asosiy iqtisodiy o'lchamlarni aniqlashning ishonchliligi bunga bog'liq.

So'ndirgichda havo miqdorining o'zgarishi qo'yidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$WH_{0a}^{1/n} = W_1 H_{1a}^{1/n} \quad (1)$$

(1) tenglamadan aniqlaymiz

$$n = \lg \frac{H_{1a}}{H_{0a}} - \lg \frac{W}{W_1}, \quad (2)$$

bunda: H_{0a} va W_1 - gidravlik zarbagacha so'ndirgichdagi havo bosimi va hajmi; H_{1a} va W - zarba jarayonida so'ndirgichda havoning bosimi va hajmi; n - politropa ko'rsatkichi.

Salbiy gidravlik zarba (suv zarbi bosim kamayishidan sodir bo'ladi) da politropik jarayonni inobatga olib naporli quvur boshida diafragmali pnevmogidravlik so'ndirgich o'rnatilganda so'ndirgichda va naporli quvurda naporning maksimal H_{\max} va minimal H_{\min} qiymatlarini aniqlashda A.A.Surin, V.S.Dikarevskiy va V.M.Alishev modellarini rivojlantirish asosida quyidagi tenglamalar keltirilgan:

$$h = 1 + 0,25\sqrt{\sigma} \frac{d\bar{g}}{d\bar{t}} - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{g} |\bar{g}|; \quad (3)$$

$$d\bar{W} = 8,1\sqrt{\sigma} \bar{g} d\bar{t}; \quad (4)$$

$$\bar{W} = h^{-0,83}, \quad (5)$$

bunda: h - so'ndirgich ichida \bar{t} vaqt momentida o'lchamsiz absolyut napor; \bar{g} - \bar{t} vaqt momentida quvurdagi suvning o'lchamsiz tezligi; \bar{t} - o'lchamsiz vaqt;

$\bar{h}_{\text{tpo}} = \frac{h_{\text{tpo}}}{H_{za}}$ - naporli quvurda barqaror harakatda o'lchamsiz napor yo'qolishi;

$\bar{h}_{\partial 0} = \frac{h_{\partial 0}}{H_{za}}$ - o'lchamsiz tezlik $\bar{g}=1$ da diafragmada o'lchamsiz napor yo'qolishi;

$\bar{W} = \frac{W}{W_0}$ - \bar{t} vaqt momentida so'ndirgich ichida o'lchamsiz havo hajmi; σ -

so'ndirgichning o'lchamsiz xarakteristik parametri.

Tenglamalar sistemasi (3) - (5) quyidagi boshlang'ich shartlarda yechiladi:

$$\left. \begin{aligned} h &= h_0 = 1 + \bar{h}_{mp0} \\ \bar{g} &= \bar{g}_0 = 1 \end{aligned} \right\} \bar{t} = 0 \text{ da.} \quad (6)$$

Keltirilgan (3)-(5) tenglamalarning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, bu yerda so'ndirgich o'rnatilgan naporli quvurda gidravlik zarba jarayonida so'ndirgich parametrlarini baholashda qator omillar inobatga olingan, jumladan so'ndirgich ichidagi havo miqdori, naporli quvurning o'lchamlari, naporli quvurda energiya yo'qolishi hamda so'ndirgich ichidagi ishchi jism (havo+suv) hajmining gidravlik zarbada o'zgarishi bilan bog'liq politropa koeffitsiyenti. Ammo keltirilgan tenglamalardan gidravlik zarba jarayonida so'ndirgich parametrlarini aniqlashda ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Keltirilgan tenglamalarni tajriba natijalari bilan solishtirishga qulay ko'rinishga keltirish kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan (3) - (5) tenglamalar sistemasini chekli farqlar usulida yechish mumkin.

Tenglama (5) dan foydalanib, so'ndirgich ichida \bar{t} dan $\bar{t} + \Delta\bar{t}$ gacha vaqt oralig'ida havo hajmi o'zgarishini tenglama (3) dan foydalanib quyidagini yozish mumkin:

$$\Delta\bar{W} = \bar{W}_{\bar{t}+\Delta\bar{t}} - \bar{W}_{\bar{t}} = \frac{1}{h_{\bar{t}+\Delta\bar{t}}^{0,83}} - \frac{1}{h_{\bar{t}}^{0,83}}. \quad (7)$$

Tenglama (2) ni quyidagicha yozib olamiz:

$$\Delta\bar{W} = 8,1\sqrt{\sigma} \bar{g}_{\bar{t}} \Delta\bar{t}. \quad (8)$$

Tenglama (7) va (8) larni tenglashtirib, ba'zi bir matematik almashtirishlardan keyin quyidagi bog'lanishni hosil qilamiz:

$$h_{\bar{t}+\Delta\bar{t}} = \frac{h_{\bar{t}}}{\left(1 + 8,1\sqrt{\sigma} \bar{g}_{\bar{t}} \Delta\bar{t} h_{\bar{t}}^{0,83}\right)^{0,83}}. \quad (9)$$

Tenglama (3) ni quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\frac{d\bar{g}}{d\bar{t}} = \frac{4}{\sqrt{\sigma}} \left[h - 1 - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{g} |\bar{g}| \right]. \quad (10)$$

Ba'zi bir matematik almashtirishlardan so'ng (10) ifodadan quyidagini hosil qilamiz:

$$\bar{g}_{t+\Delta t} = \frac{4}{\sqrt{\sigma}} \Delta t \left[h_{t+\Delta t} - 1 - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{g}_t \right] + \bar{g}_t. \quad (11)$$

Tenglama (7) va (9) larni keltirib chiqarishda quyidagi farazlar qabul qilindi:

1. $\Delta \bar{W}$ ni aniqlashda (2) bog'lanish bo'yicha $\bar{g} = \bar{g}_t$ qabul qilingan.
2. $\bar{g}_{t+\Delta t}$ ni hisoblashda $h = h_{t+\Delta t}$ va $\bar{g}|\bar{g} = \bar{g}_t|\bar{g}_t$ qabul qilingan.

Nasos stansiyalari naporli quvurlari boshlanish qismida teskari klapandan keyin so'ndirgich o'rnatilganda salbiy gidravlik zarba jarayonida so'ndirgich ichidagi maksimal va minimal naporlar (h_{\max} , h_{\min}) ni (7) va (9) bog'lanishlar yordamida EHMda hisoblash mumkin.

Yuqorida keltirilgan tenglamalar (3)-(5) ni salbiy gidravlik zarba jarayonida so'ndirgich naporli quvurga o'rnatilganda so'ndirgichda politropik jarayon uchun naporning ekstremal (maksimal $H_{a\max}$ va minimal $H_{a\min}$) qiymatlarini aniqlashning analitik yechimlari keltirilgan:

$H_{a\min}$ ni politropik jarayon uchun hisoblash

$$\left\{ e^{\zeta_o} \left(\frac{m_1 \sigma + 1}{m_1 \sigma} - \frac{m_1^{n-1}}{\sigma} \right) \left[\frac{\zeta_o^{1-n}}{(1-n)} + \sum_1^N \frac{\zeta_o^{(N+1-n)}}{(N+1-n)N!} + \dots \right] \right\} =$$

$$= \left\{ \frac{e^{\zeta_m}}{m_1 \sigma} - \frac{m_1^{n-1}}{\sigma} \left[\frac{\zeta_m^{1-n}}{(1-n)} + \sum_1^N \frac{\zeta_m^{(N+1-n)}}{(N+1-n)N!} + \dots \right] \right\}, \quad (12)$$

bunda:

$$\zeta_o = \frac{m_1}{h_o^n}; \quad \zeta_m = \frac{m_1}{h_{\min}^n}; \quad m_1 = \frac{\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}}{\sigma}. \quad (13)$$

Tenglama (12) dan m_1 , σ , n va ζ_o ma'lum bo'lgan holda, iteratsiya usuli bilan ζ_t miqdorning qiymatini aniqlash va keyin quyidagini hisoblash mumkin

$$h_{\min} = \left(\frac{m_1}{\zeta_m} \right)^n \quad \text{va} \quad H_{a\min} = h_{\min} H_{ga} \quad (14)$$

ζ_t , h_{\min} va $H_{a\min}$ larni aniqlash masalasi EHMda yechiladi.

$H_{a\max}$ ni politropik jarayon uchun aniqlash

$$\left\{ m_2 \left[\frac{\zeta_m^{(1-n)}}{(1-n)} + \sum_1^N (-1)^N \frac{\zeta_m^{(N-1-n)}}{(N+1-n)N!} + \dots \right] + e^{-\zeta_m} \right\} =$$

$$= \left\{ m_2 \left[\frac{\zeta_{\max}^{(1-n)}}{(1-n)} + \sum_1^N (-1)^N \frac{\zeta_{\max}^{(N+1-n)}}{(N+1-n)N!} + \dots \right] + e^{-\zeta_{\max}} \right\} \quad (15)$$

bunda

$$\zeta_{m_1} = \frac{m_2}{h_{\min}^n}; \quad \zeta_{\max} = \frac{m_2}{h_{\max}^n}; \quad m_2 = \frac{\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}}{\sigma}, \quad (16)$$

$$h_{\max} = \left(\frac{m_2}{\zeta_{\max}} \right)^n \quad \text{va} \quad H_{a\max} = h_{\max} H_{za} \quad (17)$$

ζ_{\max} , h_{\max} va $H_{a\max}$ larni yechish masalasi EHM da bajariladi.

Ijobiy gidravlik zarba (suv zarbi bosim ortishidan sodir bo'ladi)da diafragmali pnevmogidravlik so'ndirgich naporli quvur oxirida o'rnatilganda politropik jarayonni inobatga olib so'ndirgich va naporli quvurning gidrodinamik

parametrlari (so'ndirgich ichida va naporli quvurda maksimal H_{\max} va minimal H_{\min} napor qiymatlari) ni hisoblashda yuqorida keltirilgan tenglamalar sistemasi (18)-(20) ni quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$h = 1 - 0,25\sqrt{\sigma} \frac{d\bar{\mathcal{G}}}{d\bar{t}} - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{\mathcal{G}} |\bar{\mathcal{G}}|; \quad (18)$$

$$d\bar{W} = -8,1\sqrt{\sigma} \bar{\mathcal{G}} d\bar{t}; \quad (19)$$

$$\bar{W} = h^{-0,83}, \quad (20)$$

(18) - (20) tenglamalar sistemasi quyidagi boshlang'ich shartlar asosida yechiladi:

$$\left. \begin{array}{l} h = h_0 = 1 - \bar{h}_{mp0} \\ \bar{\mathcal{G}} = \bar{\mathcal{G}}_0 = 1 \end{array} \right\} \bar{t} = 0 \text{ da.} \quad (21)$$

Tenglamalar sistemasi (18) - (20) ni sonli chekli farqlar usulida EHMda yechish mumkin.

Tenglama (20) ni quyidagicha yozib olamiz:

$$\bar{W}_i = h_i^{-0,83} \text{ va } \bar{W}_{i+\Delta i} = h_{i+\Delta i}^{-0,83}. \quad (22)$$

Tenglama (22) dan aniqlaymiz

$$\Delta \bar{W} = \bar{W}_{i+\Delta i} - \bar{W}_i = h_{i+\Delta i}^{-0,83} - h_i^{-0,83}. \quad (23)$$

Tenglama (19) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta \bar{W} = -8,1\sqrt{\sigma} \bar{\mathcal{G}}_i \Delta \bar{t}. \quad (24)$$

(23) va (24) ifodalarni tenglashtirib yozib olamiz:

$$\frac{1}{h_{i+\Delta i}^{0,83}} - \frac{1}{h_i^{0,83}} = -8,1\sqrt{\sigma} \bar{\mathcal{G}}_i \Delta \bar{t}. \quad (25)$$

(25) ifodani ba'zi bir matematik almashtirishlardan so'ng quyidagi ifodani keltiramiz:

$$h_{i+\Delta i} = \frac{h_i}{\left(1 - 8,1\sqrt{\sigma} \bar{\mathcal{G}}_i \Delta \bar{t} h_i^{0,83}\right)^{0,83}}. \quad (26)$$

(24) tenglamani quyidagicha yozib olamiz:

$$\frac{d\bar{\mathcal{G}}}{d\bar{t}} = \frac{1-h - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{\mathcal{G}} |\bar{\mathcal{G}}|}{0,25\sqrt{\sigma}}. \quad (27)$$

(27) ifodani ba'zi bir matematik almashtirishlardan so'ng quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\bar{\mathcal{G}}_{i+\Delta i} = \bar{\mathcal{G}}_i + \frac{4}{\sqrt{\sigma}} \Delta \bar{t} \left[1 - h_{i+\Delta i} - (\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{\partial 0}) \bar{\mathcal{G}}_i |\bar{\mathcal{G}}_i| \right]. \quad (28)$$

Naporli quvur oxirida teskari klapan (tez yopiluvchi kran)dan oldin diafragmali so'ndirgich o'rnatilganda ijobiy gidravlik zarbaning birinchi fazasida so'ndirgich ichidagi maksimal H_{\max} va minimal H_{\min} napor qiymatlarini (26) va (28) bog'lanishlardan foydalanib EHMda aniqlash mumkin bo'ladi. Yuqorida qabul qilingan farazlar (26) va (28) bog'lanishlar uchun ham o'rinli hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tenglamalar (18)-(20) ni ijobiy gidravlik zarba jarayonida so'ndirgich naporli quvurlarga o'rnatilganda so'ndirgichda politropik jarayon uchun naporning maksimal h_{\max} va minimal h_{\min} qiymatlarini aniqlashning analitik yechimlari keltirilgan:

h_{\max} ni politropik jarayon uchun aniqlash

$$\left\{ e^{-\zeta_0} (1 - \aleph \sigma) + \aleph^n \left[\frac{\zeta_0^{1-n}}{1-n} - \frac{\zeta_0^{2-n}}{(2-n)!} + \frac{\zeta_0^{3-n}}{(3-n)2!} - \frac{\zeta_0^{4-n}}{(4-n)3!} + \dots + \frac{\zeta_0^{(N+1)-n}}{((N+1)-n)N!} - \dots \right] \right\} = \quad (29)$$

$$= \left\{ e^{-\zeta_m} + \aleph^n \left[\frac{\zeta_m^{1-n}}{1-n} - \frac{\zeta_m^{2-n}}{(2-n)!} + \frac{\zeta_m^{3-n}}{(3-n)2!} - \frac{\zeta_m^{4-n}}{(4-n)3!} + \dots + \frac{\zeta_m^{(N+1)-n}}{((N+1)-n)N!} - \dots \right] \right\}.$$

bunda $\zeta_0 = \frac{\aleph}{h_0^n}$; $\aleph = \frac{\bar{h}_{mp0} + \bar{h}_{d0}}{\sigma}$, $\zeta_m = \frac{\aleph}{h_{\max}^n}$.

h_{\min} politropik jarayon uchun quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$\left\{ \aleph^n \left[\frac{\zeta_m^{1-n}}{1-n} + \frac{\zeta_m^{2-n}}{(2-n)!} + \frac{\zeta_m^{3-n}}{(3-n)2!} + \frac{\zeta_m^{4-n}}{(4-n)3!} + \dots + \frac{\zeta_m^{(N+1)-n}}{((N+1)-n)N!} + \dots \right] - e^{\zeta_m} \right\} = \quad (30)$$

$$= \left\{ \aleph^n \left[\frac{\zeta_{\max}^{1-n}}{1-n} + \frac{\zeta_{\max}^{2-n}}{(2-n)!} + \frac{\zeta_{\max}^{3-n}}{(3-n)2!} + \frac{\zeta_{\max}^{4-n}}{(4-n)3!} + \dots + \frac{\zeta_{\max}^{(N+1)-n}}{((N+1)-n)N!} + \dots \right] - e^{\zeta_{\max}} \right\}.$$

bunda $\zeta_{\max} = \frac{\aleph}{h_{\min}^n}$.

\aleph , σ , n va ζ_0 lar berilganda (29) yoki (30) tenglamalardan ketma-ket yaqinlashish usuli bilan ζ_m ning qiymatini aniqlashimiz, keyin esa quyidagi formulalar yordamida h_{\max} va $H_{a\max}$ lar hisoblanadi:

$$h_{\max} = \left(\frac{m_2}{\zeta_{\max}} \right)^n \quad \text{va} \quad H_{a\max} = h_{\max} H_{ga}. \quad (31)$$

(29) yoki (30) tenglamadan \aleph , σ , n va ζ_m (h_{\max}) ma'lum bo'lgan holda ketma-ket yaqinlashish usuli bilan ζ_{\max} qiymati aniqlanadi, keyin esa quyidagi formulalar yordamida h_{\min} va $H_{a\min}$ ni hisoblash mumkin bo'ladi:

$$h_{\min} = \left(\frac{m_1}{\zeta_{\min}} \right)^n \quad \text{va} \quad H_{a\min} = h_{\min} H_{ga}. \quad (32)$$


(29) - (30) tenglamalar bo'yicha h_{\min} va h_{\max} ni hisoblash kompyuterda amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning **“Naporli gidravlik tizimlarda gidravlik zarba so'ndirgichlarning eksperimental tadqiqotlari va hisoblash usuli”** deb nomlangan uchinchi bobida gidravlik zarba so'ndirgichlarning laboratoriya sharoitida va real obyektidagi tadqiqotlari natijalari keltirilgan.

Laboratoriya tadqiqotlari tajriba qurilmasida amalga oshirildi (1-rasm). Qurilma $D = 70$ mm diametrli uzunligi $Z = 250,2$ m gorizonta quvurdan iborat. Suv 2K-20/30 markali nasos yordamida rezervuar (o'lchamlari 2,5, 6 va 2,5 m) dan naporli quvurga yetkazib beriladi. Teskari klapandan gidravlik zarbani hosil qilishda foydalanilib, o'lchovlar natijalari kompyuterda aks ettirish uchun maxsus moslama bilan jhozlangan. Tajribalarda suyuqlik sarfi hajmiy usulda aniqlangan.

Laboratoriya qurilmasi (1-rasm) da naporli quvurda beqaror harakat vaqtida so'ndirgich ichida havo hajmi o'zgarish jarayonini ifodalaydigan politropa ko'rsatkichini va so'ndirgichda naporning o'zgarishini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazildi.

So'ndirgichlarda (diafragmali va diafragmasiz) politropa ko'rsatkichi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bir qator diagrammalar olingan (2-rasm, 3-rasm).




1-suv manbai; 2-so'rish quvuri; 3-nasos; 4,10-manometrlar 5,11-qulfaklar; 6,14-tez yopiluvchi probkali kranlar; 7,12-zarba so'ndirgichlar; 8,13-yig'ish quvurchalari; 9-naporli quvur; 15-rezervuar

1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi


Olingan diagrammalarni qayta ishlash natijalari 4-rasmda ko'rsatilgan. Tajribalarda olingan politropa ko'rsatkichining o'rtacha qiymati $n=1,179$ ga teng. Hisoblarda ma'lum zahira bilan $n=1,2$ ni olish tavsiya yetiladi.

Tajribalar so'ndirgich ichidagi ishchi jism (havo+suv) parametrlari o'zgarishini quvurning uzunligi va diametriga, quvur uzunligi bo'yicha gidravlik qarshiliklar hisobiga napor yo'qolishiga va so'ndirgichni naporli quvur bilan o'lash quvurchasidagi diafragmada energiya yo'qolishiga bog'liq ravishda o'tkazildi. So'ndirgichlarning laboratoriya tadqiqotlarida dastlabki tezlik 0,2 m/s qadam bilan 0,7 m/s dan 2,5 m/s gacha oraliqda o'zgardi. Zarbadan oldin gidrodinamik napor H_0 mos ravishda 25 m dan 45 m gacha o'zgardi. Tajribalar salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlari uchun o'tkazildi (1-rasm). Tajribalardan namunalar keltirildi umumiy holda 3-4 takrorlashlar bilan bajarildi (5,6,11,12-rasmlar).



Dala tajribalari Qashqadaryo viloyati Qo'ng'irtog' nasos stansiyasida o'tkazildi.




2-rasm. So'ndirgich ichida napor va havo hajmi o'zgarish diagrammasi: 28-tajriba, $\vartheta_0=2,18$ m/s; $H_g=20,0$ m.




3-rasm. So‘ndirgich ichida napor o‘zgarishi diagrammasi: 35-tajriba, $\vartheta_0=1,51$ m/s; $H_g=30,0$ m; $W_0=0,0074$ m³; $\bar{h}_{\partial o}=0,442$.




4-rasm. So‘ndirgich ichidagi napor va havo hajmining politropa ko‘rsatkichi n ga bog‘liqligi




5-rasm. Salbiy gidravlik zarbada naporning o‘zgarish diagrammasi: №5-tajriba, $\vartheta_0 = 0,8$ m/s; $H_0 = 44,1$ m; $\bar{h}_{\partial o}=0,085$.




6-rasm. Salbiy gidravlik zarbada so‘ndirgich ichida naporning o‘zgarish diagrammasi: 12-tajriba, $\vartheta_0 = 0,82$ m/s; $H_0 = 44,0$ m; $W_0 = 0,0074$ m³; $\bar{h}_{\partial o}=0,085$.




7-rasm. Tajriba natijalari (h_{\min}^{taj}) ning analitik (h_{\min}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi




8-rasm. Tajriba natijalari (h_{\max}^{taj}) ning analitik (h_{\max}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi




9-rasm. Tajriba natijalari (h_{\min}^{taj}) ning sonli (h_{\min}^{sonli}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi



10-rasm. Tajriba natijalari (h_{\max}^{taj}) ning sonli (h_{\max}^{sonli}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi




11-rasm. Ijobiy gidravlik zarbada naporning o'zgarish diagrammasi: 15-tajriba, $H_0=26,1$ m, $v_0=0,75$ m/s.




12-rasm. Ijobiy gidravlik zarbada so'ndirgich ichida naporning o'zgarish diagrammasi: 10-tajriba, $H_0=26,0$ m, $W_0'=0,00848$ m³, $v_0=0,74$ m/s).


PGSning tadqiqoti bo'yicha formulalar (10), (15), (16), (19), (22), (23) yordamida sonli va analitik hisoblar natijalari eksperimental tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslandi (7-10,13-16-rasmlar).




13-rasm. Tajriba natijalari (H_{\min}^{max}) ning analitik (H_{\min}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi



14-rasm. Tajriba natijalari (H_{\max}^{max}) ning analitik (H_{\max}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi



15-rasm. Tajriba natijalari (H_{\min}^{max}) ning sonli (H_{\min}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi



16-rasm. Tajriba natijalari (H_{\max}^{max}) ning sonli (H_{\max}^{anal}) tadqiqotlar bilan qiyoslanishi

Qiyoslash natijalari tahlillari (7-10,13-16-rasmlar) dan ma'lum bo'ldiki, politropik jarayon (muallif tadqiqotlari, $n=1,2$) da so'ndirgich ichidagi napor o'zgarishlarining tajriba va hisobiy qiymatlari bo'yicha mos kelishi izotermik jarayon (V.M.Alishiev ma'lumotlari, $n=1,0$) ga nisbatan ishonchli ekanligi isbotlandi. So'ndirgichda ishchi jismning politropik qonuniyatga bo'ysinishing to'g'ri ekanligini tajriba ma'lumotlari va analitik hamda sonli tadqiqot natijalari isbotlaydi

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ish natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar va tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Nasos stansiyasi naporli quvuri uzunligi bo'yicha gidravlik qarshilikni va so'ndirgich bilan naporli quvurni ulash quvurchasida dempfer mahalliy qarshiligi o'zgarishini hisobga olgan holda zarba bosimining ekstremal qiymatlarini zarbaning birinchi fazasida qiymatini aniqlashni hisoblash usuli bo'yicha amalga oshirilgan hisoblar keltirilgan.

Sugʻorish nasos stansiyalarida iqtisodiy samaradorlik uzun naporli quvurlarning boshlanishida va oxirida soʻndirgich oʻrnatilganligini va ular ichidagi havo kengayish-siqilish qonuniyatini ifodalovchi politropa koeffitsiyentining tajribaga asoslangan aniq qiymatini inobatga olib, zarba soʻndirgichida naporning maksimal va minimal qiymatlarini hisoblash bilan asoslandi.

Nasos stansiyasiga elektr taʼminoti toʻsatdan uzilganda naporli quvurlarda sodir boʻladigan gidravlik zarba kuchini soʻndirgichlar parametrlarini hisoblash usullari Suv xoʻjaligi vazirligi tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga joriy etishga tavsiya etilgan. Natijada nasos stansiyasining naporli quvurlarida bosim oʻzgarishini aniq baholash natijasida quvur materiali qalinligini aniq tanlash va resurs tejamkorligini kamaytirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan.

XULOSA

“Gidravlik zarba soʻndirgichning hisobini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Salbiy va ijobiy gidravlik zarba jarayonlarida soʻndirgichlarda havo bosimi va hajmining oʻzgarishlarini inobatga olgan holda naporli quvurda oʻtkazilgan tajribalarda soʻndirgich ichidagi jarayon-politropik jarayon ekanligi va uning politropa koʻrsatkichi qiymati $n=1,2$ ga tengligi tajribada asoslandi.

2. Zarba soʻndirgichi ichidagi havo hajmi va suv naporining barqaror oqim parametrlari (absolyut gidrodinamik napor H_0 , oqim tezligi \mathcal{D}_0 va quvur uzunligi boʻyicha gidravlik ishqalanish qarshiligi hisobiga napor yoʻqolishi) bilan bir qatorda gidravlik zarba jarayonida taʼsiri kuchli namoyon boʻladigan politropa koʻrsatkichi bilan bogʻliqligini aniqlash imkoniyatini beradi.

3. Soʻndirgichlarda naporning maksimal va minimal qiymatlarini aniqlash boʻyicha laboratoriya qurilmasida va nasos stansiyasi naporli quvurida oʻtkazilgan tajribalarda olingan natijalarning toʻlqin tenglamalarini sonli va analitik usullarda yechish asosida olingan natijalari bilan mos kelishi matematik statistika qoidalari yordamida olingan bogʻlanishlarning ishonchli ekanligini asoslash imkoniyatini beradi.

4. Laboratoriya sharoitida va real obyektida olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida soʻndirgich parametrlarini soʻndirgich ichidagi havoning siqilish va kengayish qonuniyatini hisobga oladigan politropa koʻrsatkichi n qiymatiga bogʻliqligi asoslandi. Bu holat esa soʻndirgich oʻrnatilgan naporli quvurda sodir boʻladigan gidravlik zarba mohiyatini aniq ifodalash imkonini beradi.

5. Tadqiqotlarda toʻplangan maʼlumotlar tahlili hamda boshqa mualliflarning (V.S.Dikarevskiy, V.M.Alishhev) bu yoʻnalishda olib borilgan ishlarining tahlili va qiyosiy baholash asosida naporli quvurga oʻrnatilgan soʻndirgich ichidagi xavoning politropik qonuniyatga boʻysinishi ($n=1,2$) ni asoslash imkoniyati yaratiladi.

6. Naporli beqaror oqimda soʻndirgichda naporning optimal parametrlarini hisoblash usuli gidravlik zarbada yuzaga keladigan bosimning oʻzgarishlari,

boshlang'ich napor va oqim tezligini inobatga olib takomillashtirildi. Taklif etilgan usulda so'ndirgich ichidagi havo miqdorining tajribada aniqlangan optimal qiymati so'ndirgich o'lchamlarining kamayishiga olib kelishini asoslash imkonini beradi.

7. Tadqiqotlar asosida zarba so'ndirgichlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati nasos stansiyalaridan foydalanish boshqarmasiga joriy etishga topshirildi. Natijada nasos stansiyalari naporli quvurlarida sodir bo'ladigan gidravlik zarba parametrlarini aniq baholash asosida iqtisodiy samaraga erishiladi. Bu esa nasos stansiyalarining xavfsizligini ta'minlash hamda iqtisodiy samarador naporli quvurlarni loyihalash imkoniyatini yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.04./30.04.2021.Т.111.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО - ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО – ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

РАЖАБОВ УЛУГБЕК МАМАШОЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА РАСЧЕТА ГАСИТЕЛЯ
ГИДРАВЛИЧЕСКОГО УДАРА**

05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2023.1.PhD/T3526.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно – экономическом институте.
Автореферат диссертация на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб странице Научного совета по адресу qmii@qmii.uz и на информационном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Жонқобилов Улутмурад Умбарович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хўжаев Исматилла Кушаевич доктор технических наук, профессор Уралов Бахтияр Рахматуллаевич доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский архитектурно-строительный университет

Защита диссертации состоится « _____ » _____ 2023 г. в « _____ » часов на заседании научного совета PhD.04/30.04.2021.T.111.04 при Каршинском инженерно-экономическом институте по адресу: 180100, г. Карши, пр. Мустакиллик, дом 225 Тел.: (+99875)-221-09-23, e-mail: qmii@qmii.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № 68) по адресу: 180100, г. Карши, пр. Мустакиллик, дом 225. Тел.: (+99875)-221-03-77 e-mail: arm.qmii.uz.

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2023 года
(реестр протокол рассылки № _____ от _____ 2023 года).



С.С.Эшев

председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

А.Н.Хазратов

член научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н (PhD), доцент

Р.Хўжакулов

председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое значение придается вопросам рационального использования техники и технологий перекачки воды, создания разработок, обеспечивающих надежную эксплуатацию насосных станций и длинных напорных трубопроводов, повышения гидравлической эффективности напорных трубопроводов. В настоящее время в развитых странах «...при совершенствовании математической модели гидроударного процесса в напорных трубах необходимо обосновать взаимодействие потока и трубы»¹. В связи с этим особое внимание следует уделить разработкам, направленным на экономию ресурсов и энергии при исследовании гидроударных процессов в напорных трубопроводах насосных станций, в том числе по обеспечению эффективной работы, безопасности и надежности насосных станций в эксплуатации.

В мире проводятся исследования нестационарного движения потока при обеспечении эффективной работы трубопроводов насосных станций, научные исследования по определению оптимальных размеров гасителей на основе оптимальных значений изменения объема рабочего тела (воздух+вода) внутри гасителя. В частности, в этом направлении приоритетными считаются исследования, направленные на совершенствование методики расчета параметров гасителей в напорных трубопроводах насосных станций и обеспечение их надежного использования. При этом усовершенствование математической модели с учетом экспериментально обоснованного значения показателя политропии с учетом изменения объема воздуха внутри гасителей и процессов его сжатия-расширения с учетом максимального и минимального значения изменения давления в гасителе при расчете напорной трубопроводной системы на гидроудар считается актуальной задачей.

В нашей республике реализуются комплексные меры по созданию новых технологий, направленных на эффективное и безопасное использование насосных станций и повышение их эффективности. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «коренному реформированию системы управления водными ресурсами и реализации отдельной государственной программы по водному хозяйству»². В реализации этих задач важное значение имеет проведение научно-исследовательских работ, направленных на надежную работу насосных станций, совершенствование конструкций гидромеханических устройств, разработку механизмов их рационального использования.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит решению задач, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 29 июля 2021 года № УП-5201 «О модернизации 29 насосных

¹ <https://doi.org/10.1016/j.jfluidstructs.2017.10.005>.

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

станций, обеспечивающих стабильно водой орошаемые земли Сурхандарьинского и Кашкадарьинского вилоятов Республики Узбекистан», от 10 июля 2020 года № УП-6024 «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» и в постановлении от 25 сентября 2017 года № ПП-3286 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы охраны водных объектов» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологии республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Значительный вклад в разработку теоретических основ и методов расчета гидроудара в напорных трубопроводах внесли ряд известных зарубежных ученых, в том числе Жуковский Н.Ю., Сурин А.А., С.С., Мошнин Л.Ф., Лямаев Б.Ф., Попов Д.Н., Смирнов Д.Н., Джваршейшвили А.Г., Дикаревский В.С., Алишев В.М., Андрияшев М.М., А.М.Аl-Khomairi, G.Evangelisti, D.Ludewig и другие.

